
DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

DEMOGRAPHCY
AND LABOR ECONOMICS



V
SON

2026

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

(+998) 50-005-45-69
https://t.me/demografiya_mehnatbozori
demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

2026-yil
5-son

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:
Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Zokirova Nodira Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, DSc., professor
Qurbonov Paxlavon Rustamovich, DSc, dotsent
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich, PhD
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
To'xtayeva Xurshida Farxodovna, PhD

MUNDARIJA

Umurzakov Bahodir Hamidovich
O‘zbekiston aholisining 2050-yilgacha demografik rivojlanish konsepsiyasi: ustuvor muammolar va maqsadli ko‘rsatkichlarni baholash..... **3**
Mamadaliyeva Xafizaxon Xoldarovna, Bahriddinova Muazzam Azam qizi
Reproduktiv jarayonlardagi demografik paradokslar va ularning raqamli transformatsiya sharoitida namoyon bo‘lishi: O‘zbekiston uchun dalillar va tadqiqot modeli..... **14**
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li, Sodiqjonov Lochinbek Bahromjon o‘g‘li
Suv resurslarining barqaror rivojlanishga ta’siri: O‘zbekiston, Tojikiston va Ozarbayjon misolida..... **30**
Ashurzoda Luiza Muxtarovna
Oliy ta’lim qamrovining kengayishi va ta’lim sifati o’rtasidagi nisbat..... **42**
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li
Inson kapitali sifatini oshirishning innovatsion iqtisodiyotga ta’sirini baholash..... **51**
Nishanova Zulxayo Bahromovna
Mehnat migrantlari pul o‘tkazmalariga qaramlik va uning O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasiga ta’siri..... **62**
Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
Ёшлар учун рақамли бандлик имкониятлари ёшлар бандлигини таъминлашнинг самарали ечими сифатида..... **79**
Баҳриддинова Муаззам Азам қизи
Ўзбекистонда аҳолининг такрор барпо бўлиш жараёнларининг меҳнат ресурслари шаклланишига таъсирини баҳолаш (2026 йил аҳоли рўйхатга олиш натижалари асосида)..... **89**
Гафурова Зебохон Дильшод кизи
Формирование устойчивой модели экономического роста регионов Узбекистана на основе цифровых и экологических инноваций..... **100**
Usmonov Anvar Saidmahmudovich
O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari transformatsiyasi va uning urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri..... **110**
Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
Yoshlar bandligi va demografik dividend: o'zbekiston mehnat bozoridagi tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlar..... **117**
Omanova Kamola Botir qizi
O‘zbekistonda ayollar bandligi va ta’limi bilan tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik: hududiy va tarmoq tahlili..... **126**
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
Demographic trends and their impact on labour market activity in uzbekistan: evidence on the demographic window of opportunity..... **139**
Нуруддинова Адиба Газиевна
Неформальная занятость: масштабы и пути дальнейшей формализации..... **150**

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR BANDLIGI VA TA’LIMI BILAN TUG‘ILISH KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: HUDUDIY VA TARMOQ TAHLILI

Omanova Kamola Botir qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi stajyor-tadiqotchisi
ORCID: 0009-0003-1371-2509
kamolabotirovna97@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda ayollar bandligi va ta’lim darajasidagi o‘zgarishlarning tug‘ilish jarayonlari bilan bog‘liqligi hududiy-demografik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2010–2022-yillarda iqtisodiyotda band ayollar sonining hududiy dinamikasi, 2016–2024-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ayollar ulushining o‘zgarishi, 2010, 2015, 2020 va 2022-yillardagi ayollar ishsizligi hamda hududlar kesimidagi tug‘ilish ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqildi. Tahlilda statistik tavsiflash, hududlararo taqqoslash, grafik-kartografik tahlil va Spearman rang korrelyatsiyasi qo‘llanildi. Natijalar ayollar bandligining hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha notekis taqsimlanganini, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ayollar ulushi yuqori ekanini, ishsizlik darajasi esa 2020-yilda keskin oshganini ko‘rsatadi. Hududlar bo‘yicha tug‘ilgan bolalar soni reytingi bilan ayollar bandligi va ishsizlik reytinglari o‘rtasida kuchli musbat rangli bog‘liqlik aniqlangan. Biroq tug‘ilgan bolalar sonining mutlaq qiymatlari aholi soniga bog‘liq bo‘lgani sababli, korrelyatsiya natijalari sababiy ta’sir sifatida talqin qilinmaydi.*

Kalit so‘zlar: *ayollar bandligi, tug‘ilish, hududiy tafovut, ta’lim, ayollar ishsizligi, iqtisodiy faoliyat tarmoqlari, Spearman korrelyatsiyasi.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN FERTILITY RATES AND WOMEN'S EMPLOYMENT AND EDUCATION IN UZBEKISTAN: REGIONAL AND SECTORAL ANALYSIS

Omanova Kamola Botir qizi
Trainee researcher at the Research Center for "Scientific Foundations and Issues of Uzbekistan's Economic Development" under TSUE
ORCID: 0009-0003-1371-2509
kamolabotirovna97@gmail.com

Abstract. *The article examines the relationship between women's employment, educational attainment and fertility in Uzbekistan from a regional-demographic perspective. It reviews the regional dynamics of employed women in 2010–2022, changes in women's representation across economic activity sectors in 2016–2024, female unemployment in 2010, 2015, 2020 and 2022, and regional fertility indicators. Descriptive statistics, regional comparison, graphical and cartographic analysis, and Spearman's rank correlation are used. The findings show uneven regional and sectoral distributions of women's employment, particularly high female representation in education and health and social services, and a sharp rise in female unemployment in 2020. Strong positive rank associations are reported between regional rankings of births and rankings of women's employment and unemployment. Since absolute birth counts are influenced by regional population size, these correlations should not be interpreted as causal effects.*

Keywords: *women's employment, fertility, regional differences, education, female unemployment, economic sectors, Spearman's rank correlation.*

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЗАНЯТОСТИ И ОБРАЗОВАНИЯ ЖЕНЩИН С ПОКАЗАТЕЛЯМИ РОЖДАЕМОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: РЕГИОНАЛЬНЫЙ И ОТРАСЛЕВОЙ АНАЛИЗ

Оманова Камола Ботир кизи
стажер-исследователь Научно-исследовательского центра "Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана" при ТГЭУ
ORCID: 0009-0003-1371-2509
kamolabotirovna97@gmail.com

Аннотация. *В статье анализируется взаимосвязь изменений в занятости и уровне образования женщин с процессами рождаемости в Узбекистане с регионально-демографической точки зрения. Рассмотрены территориальная динамика численности занятых женщин в экономике за 2010–2022 годы, изменения доли женщин по видам экономической деятельности в 2016–2024 годах, уровень женской безработицы в 2010, 2015, 2020 и 2022 годах, а также региональные показатели рождаемости. В исследовании применены методы статистического описания, межрегионального сравнения, графического и картографического анализа, а также ранговая корреляция Спирмена. Результаты показывают неравномерное распределение женской занятости по регионам и видам экономической деятельности, высокую долю женщин в сферах образования, здравоохранения и социальных услуг, а также резкий рост женской*

безработицы в 2020 году. Выявлена сильная положительная ранговая взаимосвязь между региональными рейтингами числа родившихся детей, занятости женщин и женской безработицы. Вместе с тем, поскольку абсолютное число родившихся детей зависит от численности населения региона, полученные корреляционные результаты не следует интерпретировать как доказательство причинно-следственной связи.

Ключевые слова: *занятость женщин, рождаемость, региональные различия, образование, женская безработица, виды экономической деятельности, корреляция Спирмена.*

Kirish.

Jahonda aholi va mehnat resurslari sonining o‘sishi iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar bilan bir qatorda hududlarning demografik vaziyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aholi bandligini baholashda uning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan birga jinsiy tarkibi, ta’lim darajasi va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimotini o‘rganish muhimdir. Ayniqsa, ayollarning ta’lim olishi va iqtisodiy faolligidagi o‘zgarishlar oila shakllanishi, nikoh va farzand ko‘rish rejalari bilan uzviy bog‘liq.

Ayollar bandligi va tug‘ilish o‘rtasidagi munosabat bir yoqlama emas. Bandlik ayollarning daromadi, iqtisodiy mustaqilligi va oiladagi qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, mehnat faoliyati, kasbiy o‘sish va farzand parvarishi o‘rtasidagi vaqt taqsimoti reproduktiv rejalar bilan bog‘liq qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonlar ta’lim darajasi, oilaviy qadriyatlar, hududiy iqtisodiy sharoit va bolalarni parvarishlash imkoniyatlari bilan birgalikda shakllanadi.

O‘zbekistonda ayollar ulushi aholining qariyb yarmini tashkil etadi. So‘nggi yillarda qizlarning oliy ta’limga qamrovi kengayib, iqtisodiyot tarmoqlarida ayollar bandligining tarkibi ham o‘zgarib bormoqda. Biroq bandlik darajasi va ishsizlik hududlar bo‘yicha bir xil emas. Shu sababli ayollar bandligini faqat respublika miqyosidagi umumiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki hududiy va tarmoq xususiyatlari hamda tug‘ilish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zarur.

Maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda ayollar bandligi va ta’limidagi o‘zgarishlarni hududiy hamda tarmoq kesimida tavsiflash, shuningdek, ularning tug‘ilish ko‘rsatkichlari bilan statistik bog‘liqligini baholash. Tadqiqotda band ayollar soni, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ayollar ulushi, ayollar ishsizligi va hududlar kesimidagi tug‘ilish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar sharhi.

Ayollar bandligi va tug‘ilish o‘rtasidagi munosabat demografiya hamda iqtisodiyot fanlarida uzoq vaqtdan beri o‘rganiladi. Dastlabki iqtisodiy

yondashuvlarda ayollarning mehnat bozorida ishtiroki oshishi farzand tarbiyasi va uy xo‘jaligiga ajratiladigan vaqtning muqobil qiymatini kuchaytirishi, natijada tug‘ilish kamayishi mumkinligi ta’kidlangan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar bu munosabatning mamlakatlar, bandlik turlari va oilaviy siyosat sharoitlariga qarab farqlanishini ko‘rsatadi. Michaud va Tatsiramos (2008) Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish hodisasining ayollar bandligiga bevosita va uzoq muddatli ta’sirini dinamik modellar yordamida tahlil qilgan. Mualliflar farzand tug‘ilishi ayollarning band bo‘lish ehtimoliga ta’sir qilishini, natijalar esa mamlakatlardagi mehnat bozori moslashuvchanligi va oilaviy siyosat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, munosabat ikki tomonlama bo‘lib, bandlik ham tug‘ilish qarorlariga, tug‘ilish esa mehnat faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Behrman va Gonalons-Pons (2020) 1960–2015-yillar bo‘yicha xalqaro ma’lumotlarni birlashtirib, ayollarning haq to‘lanadigan bandligi va tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘rtasida dunyoning asosiy mintaqalarida salbiy bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Biroq mualliflar ushbu natija, ayniqsa, qishloq xo‘jaligidan tashqari bandlikda yaqqolroq ekanini qayd etadi. Bu xulosa bandlikning faqat miqdori emas, balki uning turi va tarmoq xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Ta’limning tug‘ilish xulq-atvoriga ta’sirini Amin va Behrman (2014) AQShdagi egizak ayollar ma’lumotlari asosida o‘rgangan. Ular ta’lim darajasining ortishi farzandlar sonining kamayishi va birinchi farzand tug‘ilishining kechikishiga ma’lum darajada sabab bo‘lishi mumkinligini, biroq oddiy kesimiy bog‘liqlik sababiy ta’sirni ortiqcha baholashi ehtimolini ko‘rsatadi. Behrman (2015) Malavi, Uganda va Efiopiya misolida ta’limning ortishi ayollarning istalgan farzandlar sonini kamaytirishini aniqlagan; shu bilan birga, ta’sir mexanizmlari mamlakatlar kesimida farqlangan.

O‘zbekiston bo‘yicha Tojiyeva va Ibragimov (2021) aholi va mehnat resurslarining hududiy taqsimoti, bandlik tarkibi hamda ayollar bandligining geografik xususiyatlarini tahlil qiladi. Ularning ishi mamlakatdagi bandlik jarayonlarini demografik rivojlanish bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini asoslaydi. Mosakova (2012) rivojlangan mamlakatlar tajribasida ayollar bandligi va tug‘ilish dinamikasini ko‘rib chiqib, demografik o‘tish, iqtisodiy faollik va oilaviy vazifalar o‘rtasidagi aloqadorlikka e’tibor qaratadi. Orozialieva (2012) esa Qirg‘iziston mehnat bozorida ayollar bandligining muammolarini yoritadi; bu ish Markaziy Osiyo sharoitida gender xususiyatlarini qiyosiy ko‘rib chiqish uchun kontekst beradi. Mahalliy demografik adabiyotlarda Soliyev va boshqalar (2005) qishloq joylar demografiyasini, jumladan, reproduktiv xulq-atvor va hududiy demografik tafovutlarni yoritadi. Abdurakhmanov (2023) O‘zbekiston oilalarida tug‘ilishning ko‘payishi va unga ta’sir qiluvchi omillarni muhokama qiladi. Ushbu

manbalar O‘zbekistondagi hududiy va milliy xususiyatlarni sharhlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, adabiyotlar uchta muhim xulosani beradi: birinchidan, ayollar bandligi va tug‘ilish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘pincha ikki tomonlama; ikkinchidan, ta’lim oilani shakllantirish vaqtiga va istalgan farzandlar soniga ta’sir qilishi mumkin; uchinchidan, bandlik turi, oilaviy siyosat, bolalarni parvarishlash xizmatlari va mahalliy madaniy sharoitlar ushbu munosabatni o‘zgartiradi. Shu bois O‘zbekiston bo‘yicha hududiy tahlilda bandlik darajasini ta’lim, tarmoq tarkibi va oilaviy-demografik omillar bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarur.

Metodologiya.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining demografik va bandlikka oid statistik ma’lumotlari hamda maqolada foydalanilgan hududiy kartografik materiallar tashkil etdi. Tahlilda ko‘rsatkichlarning mavjudligiga qarab 2010, 2015, 2020, 2022 va 2024-yillardagi ma’lumotlar, 2016–2024-yillardagi tarmoq tarkibi hamda 2003 va 2024-yillarga oid xaritalardan foydalanildi.

Tadqiqotda statistik tavsiflash, hududlararo taqqoslash, jadval va grafik tahlili hamda kartografik taqqoslash usullari qo‘llanildi. Hududlar kesimida tug‘ilgan bolalar soni reytingi bilan ayollar bandligi va ishsizlik reytinglari o‘rtasidagi bog‘liqlik Spearman rang korrelyatsiyasi orqali baholandi. Koeffitsiyent $\rho = 1 - [6\Sigma d^2 / n(n^2 - 1)]$ formulasi asosida hisoblandi. Bunda d — ikki rang qatori o‘rtasidagi farq, n — hududlar soni. 14 ta hudud bo‘yicha ayollar bandligi uchun $\Sigma d^2=70$, ishsizlik uchun $\Sigma d^2=18$ bo‘lib, ularga mos koeffitsiyentlar taxminan 0,85 va 0,96 ni tashkil etdi.

Tahlilning metodologik cheklovi shundaki, korrelyatsiya hisobida tug‘ilgan bolalarning mutlaq sonidan foydalanildi. Hududlar aholi soni va reproduktiv yoshdagi ayollar soni bo‘yicha farqlangani sababli, mutlaq tug‘ilish soni bandlik yoki ishsizlik reytinglari bilan bog‘liqlikni kuchaytirib ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli olingan natijalar sababiy ta’sirni emas, hududlar reytinglari o‘rtasidagi statistik moslikni ifodalaydi. Yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti xaritalari esa hududiy tafovutlarni tavsifiy jihatdan taqqoslash imkonini beradi.


Natijalar va muhokama.

2024-yil yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi 36,8 mln kishini tashkil etgan. Shundan 49,7 foizi yoki 18,2 mln nafari ayollar, 50,3 foizi yoki 18,5 mln nafari erkaklardir. 2010-yilda jami aholi 28,0 mln kishi bo‘lib, ayollar ulushi 49,9 foizni tashkil qilgan. Demak, 2010–2024-yillarda aholi soni sezilarli oshgan, biroq jinsiy tarkib deyarli muvozanatli saqlangan. O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati ayollarda 2,04 foiz,

erkaklarda 2,14 foizni tashkil etgan. Bu erkaklar soni nisbatan tezroq o‘sganini ko‘rsatadi.

Aholining jinsiy tarkibidagi muvozanat fonida ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari ham kengaygan. 2010/2011-o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalariga qabul qilinganlarning 36 foizini ayollar tashkil etgan bo‘lsa, 2022/2023-o‘quv yilida bu ulush 48,8 foizga yetgan. Shu o‘quv yilida bakalavriatga qabul qilinganlar tarkibida ayollar ulushi 48,7 foiz, magistraturada esa 49,7 foizni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar oliy ta’limga qabul tarkibida gender nisbatining muvozanatlashib borayotganini ko‘rsatadi. Ta’lim qamrovidagi kengayish bilan bir davrda erta nikoh holatlari ham kamaygan: 2012-yildagi 7 839 ta holat 2023-yilda 68 tani tashkil etgan. Bu o‘zgarishlar ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari va oilaviy-demografik xulq-atvorida yangilanishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Biroq mavjud ma’lumotlar ta’lim qamrovining ortishi erta nikohlar kamayishiga bevosita sabab bo‘lganini aniqlash imkonini bermaydi.

Hududlar kesimida dinamika bir xil bo‘lmagan. 2010–2022-yillarda Namangan viloyatida band ayollar soni 368,6 ming kishidan 470,3 ming kishiga, Toshkent shahrida esa 487,8 ming kishidan 634,8 ming kishiga oshgan. Sirdaryo viloyatida, aksincha, ko‘rsatkich 156,1 ming kishidan 136,9 ming kishiga kamaygan. Bu tafovutlar hududlarning demografik salohiyati va iqtisodiy tarkibi turlicha ekanini ko‘rsatadi.




1-rasm. O‘zbekiston hududlarida iqtisodiyotda band ayollar sonining dinamikasi, 2010–2022-yillar

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

1-rasmda band ayollar sonining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangani

ko‘rinadi. Farg‘ona, Samarqand va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida band ayollar soni nisbatan yuqori, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida esa pastroq. Bunday farqlarni baholashda mutlaq sonlar bilan bandlik darajasini farqlash lozim: aholisi ko‘p hududlarda band ayollar soni ham yuqori bo‘lishi mumkin. Shu bois hududiy bandlikni to‘liq baholash uchun mutlaq ko‘rsatkichlarni mehnat yoshidagi ayollar soniga nisbatan hisoblangan ulushlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqqoslash ayollar bandligining tarmoq tarkibi 2016–2024-yillarda o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ta’lim hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ayollar bandligi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar sifatidagi mavqeini saqlab qolgan. Ayni paytda ayrim xizmat va ishlab chiqarish tarmoqlarining o‘zaro reytingi o‘zgargan: moliyaviy va sug‘urta faoliyati, shuningdek, professional, ilmiy va texnik faoliyat yo‘nalishlarining o‘rni ko‘tarilgan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash yo‘nalishining o‘rni esa pasaygan. Grafikdagi qiymatlar foiz ulushini emas, tarmoqlarning reyting o‘rnini ifodalaydi.



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ayollar ulushining 2016–2024-yillardagi o‘zgarishi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

2022-yilda jami band aholi tarkibida ayollar ulushi 41,2 foizni tashkil etgan. Tarmoqlar kesimida bu ko‘rsatkich sezilarli farqlangan: ta’lim sohasida bandlarning 72,7 foizi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 76,6 foizi ayollar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qurilish sohasida esa ayollar ulushi 5,9 foiz bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va yengil sanoatda ayollar ulushi 40–50 foiz oralig‘ida shakllangan. Demak, ayollar bandligi ayrim ijtimoiy xizmatlar sohasida yuqori jamlangan, qurilish kabi tarmoqlarda esa ancha pastligicha qolmoqda.



3-rasm. Hududlar kesimida ayollar ishsizlik darajasi

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Tarmoqlar bo‘yicha bunday tafovutlar ayollarning mehnat sharoiti, ish vaqti va oilaviy vazifalarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari bir xil emasligini anglatadi. Shuning uchun ayollar bandligi va tug‘ilish o‘rtasidagi munosabatni baholashda bandlikning umumiy darajasi bilan cheklanmay, uning tarmoq tarkibi va mehnat sharoitlarini ham hisobga olish zarur. Biroq mazkur tadqiqotdagi tarmoq ulushlari individual tug‘ilish xulq-atvori bilan bevosita bog‘lanmaganligi sababli, muayyan tarmoqda ishlash tug‘ilish darajasini oshiradi yoki kamaytiradi, degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.


Respublika bo‘yicha ayollar ishsizlik darajasi 2010-yilda 6,3 foiz, 2015-yilda 5,0 foiz, 2020-yilda 14,1 foiz va 2022-yilda 13,4 foizni tashkil etgan. Demak, 2015-yilda ko‘rsatkich tahlil davridagi eng past darajada bo‘lgan, 2020-yilda esa keskin oshgan. 2022-yilda ishsizlik 2020-yilga nisbatan 0,7 foiz bandga pasaygan, ammo 2010 va 2015-yillardagi darajadan yuqori saqlangan.

Hududiy kesimda 2010-yilda eng yuqori ishsizlik Qoraqalpog‘iston Respublikasida (8,7 foiz), eng past ko‘rsatkich esa Toshkent shahrida (4,3 foiz) qayd etilgan. 2015-yilda Toshkent viloyatida 3,7 foiz, Samarqand va Andijon viloyatlarida 5,4 foiz ko‘rsatkich kuzatilgan. 2020-yilda eng past ko‘rsatkich Toshkent shahrida 9,1 foiz bo‘lgan, yuqori ko‘rsatkichlar esa Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qayd etilgan. 2022-yilda respublika bo‘yicha ishsizlik 13,4 foiz, Toshkent shahrida esa 7,9 foizni tashkil qilgan.

Ayollar ishsizligining 2020-yildagi keskin oshishi pandemiya davrida mehnat bozorida yuzaga kelgan bosim bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. 2022-yilda ko‘rsatkichning biroz pasayishi kuzatilgan bo‘lsa-da, u pandemiyagacha bo‘lgan darajadan yuqori saqlangan. Bu holat ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlashda hududiy tafovutlar bilan bir qatorda, ish o‘rinlarining barqarorligi va tarmoqlar bo‘yicha imkoniyatlarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

2003-yilda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti sezilarli hududiy tafovutlarga ega bo‘lgan. Xarita tasvirida Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida ko‘rsatkichlar nisbatan yuqori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa nisbatan past diapazonda aks etgan. 2003-yil xaritasida yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti 1,81–2,83 oralig‘ida bo‘lgan.

2024-yil xaritasida hududiy manzara o‘zgargan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyenti yuqori darajada saqlangan, Samarqand viloyati ham yuqori ko‘rsatkichli hududlar qatorida namoyon bo‘lgan. Farg‘ona vodiysi hududlarida ham nisbatan yuqori tug‘ilish ko‘rsatkichlari kuzatiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa ko‘rsatkich boshqa hududlarga nisbatan past diapazonda aks etgan; 2024-yil xaritasidagi qiymatlar 2,64–3,68 oralig‘ida joylashgan.



4-rasm. O‘zbekistonda yig‘indi tug‘ilish koeffitsiyentining hududiy taqsimlanishi, 2003 va 2024-yillar

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Ikki davr xaritasining qiyosiy tahlili tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan ayrim hududlar o‘z mavqeini saqlab qolganini, shu bilan birga yuqori ko‘rsatkichli

hududlar geografiyasida ham o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, janubiy viloyatlar va Farg‘ona vodiysida tug‘ilish ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori bo‘lishi respublikada reproduktiv xulq-atvorning hududiy xususiyatlari bir xil emasligini anglatadi. Xaritalar turli yillar uchun alohida rang diapazonlarida tuzilganligi sababli, ularni rang intensivligi bo‘yicha bevosita miqdoriy qiyoslash emas, hududiy joylashuvdagi umumiy farqlarni aniqlash maqsadida talqin qilish lozim.

Hududiy demografik tafovutlar va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik moslikni aniqlash maqsadida tug‘ilgan bolalar soni reytingi ayollar bandligi hamda ishsizlik reytinglari bilan taqqoslandi. 14 ta hudud bo‘yicha hisob-kitoblarda ayollar bandligi bilan bog‘liqlik uchun $\Sigma d^2=70$, ishsizlik bilan bog‘liqlik uchun esa $\Sigma d^2=18$ qiymatlari olindi. Spearman formulasi asosida hisoblangan koeffitsiyentlar mos ravishda $\rho\approx0,85$ va $\rho\approx0,96$ ga teng bo‘ldi.

1-jadval

Tug‘ilgan bolalar soni, ayollar bandligi va ishsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha hududlar reytingi

Hudud	Tug‘ilgan bolalar soni	Tug‘ilish bo‘yicha rang	Ayollar bandligi rangi	d	d^2	Ishsizlik rangi	d	d^2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	42 835	11	11	0	0	11	0	0
Andijon viloyati	86 506	4	5	−1	1	3	1	1
Buxoro viloyati	45 058	9	10	−1	1	10	−1	1
Jizzax viloyati	40 743	12	12	0	0	12	0	0
Qashqadaryo viloyati	98 279	3	7	−4	16	4	−1	1
Navoiy viloyati	26 274	13	13	0	0	13	0	0
Namangan viloyati	82 330	5	6	−1	1	6	−1	1
Samarqand viloyati	111 505	1	3	−2	4	2	−1	1
Surxondaryo viloyati	81 547	6	8	−2	4	7	−1	1
Sirdaryo viloyati	23 320	14	14	0	0	14	0	0
Toshkent viloyati	73 556	8	4	4	16	5	3	9
Farg‘ona viloyati	101 308	2	1	1	1	1	1	1
Xorazm viloyati	44 920	10	9	1	1	9	1	1
Toshkent shahri	74 036	7	2	5	25	8	−1	1
Jami / Σd^2	**932 217**	**—**	**—**	**—**	**70**	**—**	**—**	**18**

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari. Tug‘ilgan bolalar soni 2022-yilga tegishli.*

Hisoblangan 0,85 va 0,96 koeffitsiyentlari hududlar reytinglari o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni tug‘ilgan bolalar soni yuqori bo‘lgan

hududlar ayollar bandligi va ishsizlik koʻrsatkichlari boʻyicha ham yuqoriroq oʻrinlarni egallashga moyil. Biroq bu natija bandlik yoki ishsizlik tugʻilishga bevosita ta’sir koʻrsatishini anglatmaydi. Hisob-kitobda tugʻilgan bolalarning mutlaq soni qoʻllanganligi sababli, aholisi koʻp hududlarda tugʻilishlar sonining yuqori boʻlishi korrelyatsiyani kuchaytirishi mumkin. Shu bois natijalar sababiy munosabat emas, hududlar reytinglari oʻrtasidagi statistik moslik sifatida talqin qilinishi lozim.

Umuman, korrelyatsiya natijalari hududiy demografik jarayonlar va ayollar bandligi koʻrsatkichlari oʻzaro bogʻliq holda namoyon boʻlishini koʻrsatadi. Keyingi tadqiqotlarda tugʻilgan bolalarning mutlaq soni bilan bir qatorda yigʻindi tugʻilish koeffitsiyenti yoki reproduktiv yoshdagi ayollarga nisbatan hisoblangan koʻrsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari Oʻzbekistonda ayollar bandligi va ta’limidagi oʻzgarishlar hududlar hamda iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha notekis kechayotganini koʻrsatdi. 2010–2022-yillarda respublika boʻyicha band ayollar soni 2015-yilda eng yuqori darajaga yetgan, 2020-yilda kamaygan va 2022-yilda qisman tiklangan. Hududlar kesimida band ayollar soni Fargʻona, Samarqand va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida nisbatan yuqori, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida esa pastroq boʻlgan.

Tarmoqlar boʻyicha ayollar ulushi ta’lim hamda sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda yuqori, qurilishda esa past darajada. 2016–2024-yillardagi grafik taqqoslash ayrim tarmoqlarning reyting oʻrinlari oʻzgarganini koʻrsatadi. Bu holat ayollar bandligini baholashda umumiy koʻrsatkichlar bilan bir qatorda tarmoq tarkibi va mehnat sharoitlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Ayollar ishsizligi 2015-yildagi 5,0 foizdan 2020-yilda 14,1 foizgacha oshgan va 2022-yilda 13,4 foizga pasaygan. Koʻrsatkichning pandemiyadan keyin ham yuqori saqlanib qolishi ayollar mehnat bozoridagi hududiy tafovutlar va ish oʻrinlari barqarorligini alohida oʻrganish zarurligini koʻrsatadi.

Spearman tahlili tugʻilgan bolalar soni reytingi bilan ayollar bandligi reytingi ($\rho \approx 0{,}85$) va ishsizlik reytingi ($\rho \approx 0{,}96$) oʻrtasida kuchli musbat bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatdi. Biroq bu natijalar sababiy munosabatni isbotlamaydi, chunki hisob-kitoblarda tugʻilishning mutlaq soni ishlatilgan va hududlar aholi soni boʻyicha farqlanadi. Kelgusi tadqiqotlarda yigʻindi tugʻilish koeffitsiyenti, reproduktiv yoshdagi ayollar soni, ta’lim, nikoh yoshi va bandlikning tarmoq tarkibini birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan ayollar bandligini qoʻllab-quvvatlash siyosati ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, moslashuvchan ish shakllari va bolalarni parvarishlash xizmatlari bilan

uyg‘unlashtirilishi lozim. Bunday yondashuv ayollarning iqtisodiy faolligini kengaytirish bilan birga, oilaviy va reproduktiv rejalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Amin, V., & Behrman, J. R. (2014). Do more-schooled women have fewer children and delay childbearing? Evidence from a sample of US twins. Journal of Population Economics, 27(1), 1–31. https://doi.org/10.1007/s00148-013-0470-z

2. Behrman, J. A. (2015). Does schooling affect women’s desired fertility? Evidence from Malawi, Uganda, and Ethiopia. Demography, 52(3), 787–809. https://doi.org/10.1007/s13524-015-0392-3

3. Behrman, J., & Gonalons-Pons, P. (2020). Women’s employment and fertility in a global perspective (1960–2015). Demographic Research, 43, 707–744. https://doi.org/10.4054/DemRes.2020.43.25

4. Michaud, P.-C., & Tatsiramos, K. (2008). Fertility and female employment dynamics in Europe: The effect of using alternative econometric modeling assumptions (IZA Discussion Paper No. 3853). Institute of Labor Economics. https://www.iza.org/publications/dp/3853

5. Mosakova, E. A. (2012). Динамика занятости женщин и рождаемости в современных развитых странах мира [Rivojlangan zamonaviy mamlakatlarda ayollar bandligi va tug‘ilish dinamikasi]. Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Экономика и управление, (2), 36–44. https://journals.vsu.ru/econ/article/view/9791

6. Orozialieva, A. S. (2012). Женщины на рынке труда Кыргызской Республики [Qirg‘iziston Respublikasi mehnat bozorida ayollar]. Reforma, 2(54), 85–88.

7. Soliev, A. S., Bo‘riyeva, M. R., Tojiyeva, Z. N., Nazarov, M., Muhamedov, O., & Atajonov, M. (2005). Qishloq joylar demografiyasi [Qishloq joylar demografiyasi]. Toshkent.

8. Tojiyeva, Z., & Ibragimov, L. (2021). Labour market and employment in Uzbekistan. Geografický časopis / Geographical Journal, 73(4), 359–374. https://doi.org/10.31577/geogrcas.2021.73.4.19

9. Abdurakhmanov, X. (2023). O‘zbekiston oilalarida tug‘ilishning ko‘payish sabablari va omillari. SamDU ilmiy axborotnomasi, 4-son, 2-seriya.

10. International Labour Organization. (n.d.). Working women: Facts and figures. https://www.ilo.org

11. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). Official statistics. https://stat.uz/en/

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi